



## ZAIF ESHITUVCHILARDA MULOQOT VA SHAXSLARARO ZIDDIYATLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Narmetova Yulduz Karimovna

Toshkent Davlat tibbiyot universiteti dotsenti

Yusupova Muxlisa

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15656684>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2025 yil

Ma'qullandi: 07- June 2025 yil

Nashr qilindi: 13- June 2025 yil

### KEYWORDS

*muloqot, shaxslararo ziddiyat, anglashmovchilik, murosaga kelish, empatiya, ijtimoiy munosabat, ziddiyat sabablari, konflikt, insonlararo aloqa.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada muloqotning insonlar hayotidagi o'rni, uning turlari va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, shaxslararo ziddiyatlar tushunchasi, ularning asosiy sabablari va yuzaga kelish omillari tahlil qilingan. Maqolada ziddiyatlarni hal etishning samarali usullari — ochiq muloqot, murosaga kelish, faol tinglash va empatiya haqida so'z yuritiladi. Ushbu mavzu ijtimoiy muhitda sog'lom munosabatlar o'rnatishda muhim ahamiyatga ega..*

Inson — ijtimoiy mavjudot. U har kuni turli odamlar bilan muloqotga kirishadi, fikr almashadi, o'z his-tuyg'ularini ifoda etadi. Har qanday jamiyatda insonlar o'rtasidagi sog'lom aloqa — hamkorlik, ishonch va taraqqiyot garovidir. Jamiyatda har bir insonning teng huquqli ishtirokini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, eshitish imkoniyati cheklangan (zaif eshituvchi) shaxslar uchun ijtimoiy muhitga moslashish va samarali muloqot qilish katta ahamiyatga ega. Ularning muloqoti, shuningdek, shaxslararo munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada zaif eshituvchilarning muloqot jarayoni va ziddiyatlarga yondashuvi tahlil qilinadi.

Muloqot insonlar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni barpo qilish va rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Og'zaki va noverbal (tana harakati, mimika, intonatsiya) shakllarda bo'lishi mumkin bo'lgan muloqot orqali odamlar bir-birlarini anglaydi, o'z fikrlarini ifoda etadi va jamiyatda muvofiqlikni ta'minlaydi. Samimiy va ochiq muloqot insonlar orasidagi ishonchni oshiradi, ziddiyatlarning oldini oladi. Zaif eshituvchilarning muloqot jarayoni odatdagi eshituvchi insonlarga qaraganda bir qator farqlar bilan ajralib turadi. Eshitishdagi cheklovlar tufayli ular og'zaki muloqotdan to'liq foydalana olmaydilar. Buning o'rniga imo-ishora tili, mimika, pantomima va yozma aloqa vositalariga tayanadilar.

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) Individlarning o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- d) Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- e) Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- f) Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- g) Shaxslarning bir-birlarini tushinishi jarayoni.

Muloqotda muhim o'rinni psixologik ta'sir egallaydi. Psixologik ta'sir aloqaning tarkibiy birligi, tarkibiy qismidir. Aslini olganda, bu bir shaxsning (yoki bir guruh odamlarning) boshqa shaxs (yoki odamlar guruhi) psixikasiga kirib borishidir. Ushbu kirishning maqsadi va natijalari individual yoki guruh ruhiy hodisalarini (qarashlar, munosabatlar, holatlar va boshqalar) o'zgartirish, qayta qurishdir. Psixologik ta'sir hech qanday qudratli emas, garchi ma'lum sharoitlarda odamlarning psixikasida va u orqali ularning faoliyati va xatti-harakatlarida ma'lum o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlar - bu bizga yaqin odamlar bilan munosabatlar; bu ota-onalar va bolalar, er va xotin, aka-uka va opa-singil o'rtasidagi munosabatlardir. Shaxslararo munosabatlarning tarkibiy qismlari:

1. Kognitiv komponent- barcha kognitiv psixik jarayonlarni o'z ichiga oladi: hislar, idrok etish, tasvirlash, xotira, fikrlash, tasavvur. Ushbu komponent tufayli birgalikdagi faoliyatda sheriklarning individual psixologik xususiyatlari va odamlar o'rtasidagi o'zaro tushunish haqida bilim mavjud. O'zaro tushunishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

2. Adekvatlik - idrok etilayotgan shaxsning ruhiy aks etishining to'g'riligi;

3. Identifikatsiya - shaxs tomonidan o'z shaxsiyatini boshqa shaxsning shaxsiyati bilan aniqlash;

4. Hissiy komponent- shaxsning boshqa odamlar bilan shaxslararo muloqotda bo'lgan ijobiy yoki salbiy tajribalarini o'z ichiga oladi.

Ziddiyat-(lot. conflictus - qarama-qarshilik, konflikt) - tomonlarning yoki hamkorlikdagi sub'ektlarning qarama-qarshi yo'nalishdagi manfaatlari, maqsadlari, pozitsiyalari, fikr va qarashlari to'qnashuvidir. Ziddiyat har doim ham yuzaga kelgan nizolarni hal etishning samarali usuli bo'lib hisoblanmaydi, chunki nizo jarayonida paydo bo'ladigan kuchli emotsiyalar oqibatida tafakkur jarayonlari sekinlashadi, uning doirasi torayadi, psixikaning eng sodda qatlamlari (instinktlar, impulsiv xatti-harakatlar) ishga tushadi. Ammo ziddiyatlarni hal qilishning yagona yo'li ziddiyatga kirish bo'lsa, bu jarayondagi tashabbuskorlikni o'z qo'lingizga olishingiz lozim. Chunki konfliktga ongli tarzda kirish orqali uni boshqarish mumkin. Shuni esda tutish lozimki, doimiy tarzda ko'p martalab ziddiyatga kirish sog'liq uchun zararlidir.

Konfliktning turlari:

1. Ichki konflikt - insonning o'z ichidagi qarama-qarshiligi (masalan, qaror qabul qila olmaslik).

2. Shaxslararo konflikt - ikki kishi o'rtasidagi ziddiyat.

3. Guruhlararo konflikt - ikki yoki undan ortiq guruhlar o'rtasidagi ziddiyat.

4. Ijtimoiy konflikt - jamiyatdagi tabaqalar, sinflar, millatlar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik.

Konfliktni qanday qilib boshqarish mumkin? Buning uchun kishidan o'z emotsiyalarini nazorat qilish, qalbaki sabablardan haqiqiy sabablarni ajratib olish, ziddiyatni lokallashtirish, faqat himoyaga diqqatni qaratishdan qochish, tashabbuskorlikni o'z qo'lida ushlab turish talab etiladi.

Ziddiyatni hal etishning to'rtta yo'li mavjud: bo'ysundirish, kompromiss, qochish va integratsiya. Oxirgi yo'l eng qiyin, lekin uni amalga oshirish mumkin. Ziddiyatli vaziyatlardan chiqishni bilmaslik, har qanday kishi uchun muomala jarayonida paydo bo'ladigan ko'plab kundalik qiyinchiliklarni engib o'tish, jismoniy va psixik sog'liqqa putur etkazuvchi

emotsional stresslarga olib keladi. Bu holatni psixologlar shaxslararo muomaladagi to'siqlar, deb atashadi. Muomaladagi to'siqlar - bu ziddiyatlar paydo bo'lishiga imkon yaratuvchi juda ko'p omillardir.

Zaif eshituvchilar shaxslararo munosabatlarda ham qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bular quyidagi sabablarga borib taqaladi:

1. Tushunmovchiliklar – muloqotdagi noaniqliklar yoki noto'g'ri talqinlar.
2. Kommunikativ to'siqlar – imo-ishora tilini bilmaslik yoki noto'g'ri foydalanish.
3. Ijtimoiy kamsitish – jamiyatda nogironlikka nisbatan noto'g'ri stereotiplar mavjudligi
4. O'z-o'ziga ishonchning pastligi – o'z fikrini bildirishdan cho'chish, bahsdan chetlashish.

Bunday ziddiyatlar nafaqat psixologik bosimni kuchaytiradi, balki ijtimoiy muvozanatni ham izdan chiqaradi.

Zaif eshituvchilarda yuzaga keladigan shaxslararo ziddiyatlarni hal qilishda alohida yondashuv, sabr, va maxsus kommunikatsiya vositalaridan foydalanish zarur bo'ladi.

Birinchidan, ziddiyatning sababini aniqlash muhimdir. Bu bosqichda har ikki tomonning pozitsiyasini to'g'ri tushunish uchun vizual vositalar, yozma savollar yoki imo-ishora tilidan foydalanish kerak. To'g'ri talqin qilinmagan iboralar ko'pincha kelishmovchilikka olib kelgani sababli, muloqotni aniqlashtirish muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, vositachilik (tarjimon, signal tilini biluvchi shaxs) orqali muloqotni yengillashtirish samarali bo'lishi mumkin. Ayniqsa, konflikt jamoaviy muhitda (masalan, ish joyi, o'quv muassasasi) yuzaga kelgan bo'lsa, neytral vositachining ishtiroki taraflar o'rtasida adolatli va aniq aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Uchinchidan, ziddiyatni hal qilishda emosional tushunuvchanlik muhim ahamiyatga ega. Zaif eshituvchilar ba'zida o'z fikrlarini yetkazishda qiynalganliklari sababli ichki bosimga duch keladilar. Shu sababli, ularning holatini tushunishga harakat qilish, sabr-toqat bilan yondashish, xolis va tinch muhit yaratish ziddiyatni yumshatishga yordam beradi.

To'rtinchidan, ta'lim va tarbiya jarayonida inkluziv yondashuvni rivojlantirish kerak. Bu orqali zaif eshituvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etish, jamoada o'z o'rnini topish, va ziddiyat holatlarida o'zini tutish ko'nikmalari shakllanadi.

Zaif eshituvchilarning muloqoti va shaxslararo ziddiyatlari ularning eshishdagi cheklovlari bilan bevosita bog'liqdir. Bunday insonlar bilan samarali muloqot qurish va ziddiyatlarning oldini olish jamiyatning har bir a'zosidan e'tibor, sabr, tushunish va hamkorlikni talab etadi. Insoniylik, inkluziv yondashuv va ijtimoiy mas'uliyat orqali zaif eshituvchilarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlanadi.

### **Xulosa**

Zamonaviy jamiyatda yashayotgan har bir inson muloqot madaniyatini egallashi zarur, chunki har bir ijtimoiy munosabat — oilaviy hayotdan tortib, ish joyi va do'stona aloqalargacha — aynan muloqotga tayangan holda shakllanadi. Muloqot nafaqat axborot uzatish vositasi, balki insonlar o'rtasidagi ishonch, hurmat va hamkorlikni qaror toptiruvchi kuchdir. Shu bilan birga, har qanday muloqotda turli sabablarga ko'ra shaxslararo ziddiyatlar vujudga kelishi mumkin. Bunday holatlar insonlar orasidagi tafovutlar, tushunmovchiliklar, hissiy reaksiyalar yoki manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
3. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 b.
4. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 b.
5. Qizi, Q. M. O., & Karimovna, N. Y. (2025). ZAIF ESHITUVCHI BOLALARGA IMO-ISHORA TILINI O'RGATISH. Central Asian Journal of Academic Research, 3(3), 183-186.
6. Нарметова, Ю. (2014). Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар психологик хусусиятларининг ўзига хослиги. Болалар учун ижтимоий хамкорлик: миллий ва халқаро илғор тажрибалар". Халқаро форум. Тошкент,-2014. Б, 244-247.
7. Karimovna, N. Y. (2022). Autism and the importance of communication with patients of this disease. Gospodarka i Innowacje., 23, 8-10.
8. Karimovna, N. Y. (2023). COGNITIVE DISORDERS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 12, 126-131.
9. Karimovna, N. Y. (2022). Yoshlarda Internetga Tobelik Muammolari. Ta'Lim Va Rivojlanish Tahlili Onlayn Ilmiy Jurnali, 2(12), 96-99.
10. Нарметова, Ю. (2021). Алекситимия-психосоматик касалликлар омили сифатида. Scienceweb academic papers collection.

INNOVATIVE  
ACADEMY